



PHILOSOPHY OF RESPONSIBILITY IN THE CONDITIONS OF GLOBAL ECOLOGICAL CRISIS

Mukarram Boyriyevna Samandarova

Researcher of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

b.jurakulov0202@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: global, ecological crisis, humanity, threats, technology, nature, responsibility, opportunity, ecological control.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: The article applies the general relationship between nature and society to the current global ecological crises. The philosophy of ecological responsibility should be not only a system of theoretical views, but also a basis for practical activities. This necessitates the need for the philosophy of responsibility to occupy a central place in the process of environmental education and upbringing. The purpose of environmental education is not only to impart environmental knowledge, but also to form environmental responsibility.

GLOBAL EKOLOGIK INQIROZ SHAROITIDA MAS'ULIYAT FALSAFASI

Mukarram Bo'riyevna Samandarova

Samarqand davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi

b.jurakulov0202@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: global, ekologik inqiroz, insoniyat, tahdidlar, texnologiya, tabiat, ma'suliyat, imkoniyat, ekologik nazorat.

Annotatsiya: Maqolada hozirgi global ekologik inqirozlarni kuchayishi tabiat va jamiyat o'rtasidagi umumiy munosabatlar tadbiq etilgan. Ekologik mas'uliyat falsafasi nafaqat nazariy qarashlar tizimi, balki amaliy faoliyat uchun asos ham bo'lmog'i lozim. Bu esa ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida mas'uliyat falsafasi markaziy o'rinni egallashi zaruratini shartlab qo'yadi. Ekologik ta'limning maqsadi nafaqat ekologik bilimlarni berish, balki ekologik mas'uliyatni

ФИЛОСОФИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КРИЗИСА

Мукаррам Бойриевна Самандарова

Научный сотрудник

Самаркандского государственного института иностранных языков

b.jurakulov0202@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобальный, экологический кризис, угрозы, технологии, ответственность, экологический контроль.	Аннотация: В статье рассматривается общая взаимосвязь природы и общества в контексте современных глобальных экологических кризисов. Философия экологической ответственности должна быть не только системой теоретических взглядов, но и основой практической деятельности. Это обуславливает необходимость того, чтобы философия ответственности заняла центральное место в процессе экологического образования и воспитания. Цель экологического образования — не только дать экологические знания, но и сформировать экологическую ответственность.
---	--

Kirish. Gans Yonas zamonaviy inson faoliyatining oqibatlari va ekologik muammolar oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qilar ekan, texnogen rivojlanish bilan tabiiy jarayonlar oʻrtasidagi muvozanatni saqlashning muhim ahamiyatini alohida taʼkidlaydi. Uning falsafiy qarashlarida, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi tabiat bilan inson oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni qayta koʻrib chiqishni talab etadi. Yonasning fikricha, «tabiatning tanazzuli tobora tezlashib bormoqda, tabiat muvozanati qaytib kelmaydigan nuqtaga yaqinlashmoqda. Biroq, biz hali ham vaqtini oʻtkazib yubormagan holda uni saqlab qolishimiz mumkin».[1]

Faylasuf oʻz asarlarida insoniyat oldida turgan ekologik muammolarning yechimi boʻyicha bir qator muhim fikrlarni ilgari suradi. U tabiatga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlikni anglash va insonning yer yuzidagi hayotni saqlab qolish uchun masʼuliyatini oshirishni talab qiladi. Yonas taʼkidlashicha, zamonaviy sivilizatsiya tabiat bilan uygʻunlikda yashash qoidalarini qayta koʻrib chiqishi va tabiatni faqat oʻzi uchun foydalanadigan obʼekt emas, balki insoniyatning ajralmas qismi sifatida qabul qilishi lozim.

Holbuki, Yonas texnologik va ekologik inqirozni odamlarning maʼnaviy-axloqiy holatidagi inqiroz bilan chambarchas bogʻlaydi. U insonning tabiatga nisbatan hukmronlik qilish istagi va

tabiatni faqat resurs sifatida tushunishini qattiq tanqid qiladi. Bunday yondashuv uzoq muddatli istiqbolda insoniyatning o'zi uchun ham xavfli ekanligini ta'kidlaydi. Faylasufning fikricha, inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatdan foydalanishda chegaralarni anglashi va texnik progressning salbiy oqibatlari uchun mas'uliyatli bo'lishi kerak.

Faylasuf «soxta ehtiyojlar»ni qondirish uchun tabiiy resurslarning haddan tashqari iste'mol qilinishiga qarshi chiqadi va iste'molchilik madaniyatini tanqid qiladi. Yonasning qarashlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qayta qurish, cheksiz iqtisodiy o'sish g'oyasidan voz kechish hamda tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan yangi ekologik ongni shakllantirish masalalari markaziy o'rin egallaydi. U ekologik muammolarni faqatgina texnik vositalar bilan hal qilib bo'lmasligini, balki insoniyat o'zining yashash tarzini, qadriyatlarini va tabiatga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishi kerakligini uqtiradi.

Bugun insoniyat global ekologik inqiroz tahdidi bilan yuzma-yuz kelgan inqirozning asosiy xususiyati shundaki, u nafaqat tabiiy muhit bilan bog'liq muammolarni, balki insoniyat mavjudligining falsafiy-axloqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni ham talab qilmoqda. Olimlarning fikricha: «Kishilik jamiyatining o'zi ham, ma'lum ma'noda tabiatning bir qismi bo'lib, atrofini o'rab turuvchi tabiiy muhit bilan modda almashinishida muhim rol o'ynaydi. Odam, ayni vaqtda, ham biologik, ham ijtimoiy hodisadir. Tabiat insonga boshqa tirik organizmlar qatori ta'sir o'tkazadi. Biroq insonning tabiatga bo'lgan ta'siri esa, ongli ta'sir bo'lib, ijtimoiy mazmun kasb etadi» [2].

Ekologik mas'uliyat falsafasining muhim jihatlaridan biri - bu kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat tushunchasidir. Bu tushuncha ekologik mas'uliyatning vaqt doirasini kengaytiradi va hozirgi avlodlarning xatti-harakatlari kelajak avlodlar hayotiga bevosita ta'sir qilishini tan olishga asoslanadi. Biroq N.Shermuxeamedova ta'kidlaganidek, «Tabiat misli ko'rilmagan darajada ekspluatatsiya qilinayotgan hozirgi industrial jamiyatda inson tabiati haqidagi tasavvur ayniqsa murakkab tus oladi»[3].

Fikrimizcha, ekologik mas'uliyatni shakllantirishning institutsional mexanizmlari jamiyat hayotining barcha sohalarini to'liq qamrab olishi kerak. Bu mexanizmlar jamiyatning har bir a'zosi, tashkilotlar va davlat organlarida ekologik ong va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Fikrimizcha, bu mexanizmlar bir qator muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, huquqiy-normativ bazani yaratish va takomillashtirish zarur. Bu yo'nalish ekologik qonunchilikni mustahkamlash, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonun va qoidalarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga

oladi. Ekologik qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish va huquqiy me'yorlarning samaradorligini oshirish ham bu mexanizmning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Ikkinchidan, ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalish ta'limning barcha bosqichlarida, maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirishni, aholining turli qatlamlari uchun ekologik ma'rifat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali ekologik madaniyatni targ'ib qilishni nazarda tutadi.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rag'batlantirish tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu tizim ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun iqtisodiy imtiyozlar taqdim etish, soliq yengilliklari berish va boshqa rag'batlantirish choralarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tabiatga zarar yetkazadigan faoliyat uchun iqtisodiy jazo choralarini ham belgilash lozim.

To'rtinchidan, ekologik nazorat va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu mexanizm atrof-muhit holatini doimiy kuzatib borish, ekologik xavflarni baholash, tabiiy resurslarning holatini nazorat qilish, shuningdek, ekologik talablar bajarilishini tekshirish tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, masalan, geografik axborot tizimlari va masofadan zondlash usullari orqali monitoring tizimlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan institutsional mexanizmlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. Ularning samarali amal qilishi ekologik mas'uliyatni jamiyat hayotining barcha sohalarida shakllantirishga, tabiatni asrab-avaylash madaniyatini rivojlantirishga va kelajak avlodlar uchun qulay ekologik muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mas'uliyat falsafasi nafaqat nazariy qarashlar tizimi, balki amaliy faoliyat uchun asos ham bo'lmog'i lozim. Bu esa ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida mas'uliyat falsafasi markaziy o'rinni egallashi zaruratini shartlab qo'yadi. Ekologik ta'limning maqsadi nafaqat ekologik bilimlarni berish, balki ekologik mas'uliyatni shakllantirish ham hisoblanadi. Tadqiqotchilar bu borada «Tabiatni seva bilishni, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va ekologik madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash hissiyotini hosil kiladi. Vatanni sevish va vatanparvarlik tabiatini sevishdan boshlanadi» [4], deb hisoblaydilar.

R.Faxrutdinovanning fikricha: «Hozirgi vaqtda global ekologik inqiroz holati tufayli yosh avlodning ta'lim va tarbiyasida hamda umuman aholini ma'rifatlashtirishda yangi dunyoqarashni mustahkamlash talab etiladi, ya'ni «tabiat va jamiyat» tizimi haqidagi tasavvurni «tabiat –

jamiyat» degan boshqa tizimning ob'ektiv mavjudligi haqidagi tasavvur bilan almashtirish zarur»[5]. Bu o'rinda R.Faxrutdinova dunyoqarashdagi muhim o'zgarishga ehtiyoj mavjudligini ta'kidlamogda. Uning nazarida, bugungi kundagi ekologik muammolar insonning tabiatga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Olima ta'kidlashicha, an'anaviy «tabiat va jamiyat» tushunchasi tabiat bilan jamiyatni alohida, mustaqil tizimlar sifatida ko'radi. Biroq, zamonaviy ekologik vaziyat bunday qarashning noto'g'ri ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bois, R.Faxrutdinova «tabiat – jamiyat» tushunchasini ilgari suradi, bu esa tabiat va jamiyatning o'zaro chambarchas bog'liqligini, ular yagona tizimning ajralmas qismlari ekanligini anglatadi. Bunday dunyoqarashni shakllantirish uchun, uning fikricha, ta'lim tizimida tub o'zgarishlar qilish, yoshlarga ekologik ta'lim berishning yangi usullarini joriy etish hamda umuman aholining ekologik ongini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish zarur. Faqat shundagina jamiyat a'zolari tabiatni o'zlaridan ajralgan, faqat foydalanish ob'ekti sifatida emas, balki o'zlari ham uning bir qismi ekanliklarini anglab yetadilar.

Tahlil va natijalar. Fikrimizcha, tabiatga bo'lgan axloqiy me'yorlarni shakllantirishning amaliy jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Masalaning yana bir muhim jihati, ekologik mas'uliyat falsafasining amaliy tatbiqi xalqaro hamkorlikni tavlal etadi. Bunda tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal etishda barcha davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. Hech bir mamlakat o'z kuchi va resurslari bilan global ekologik muammolarning uddasidan chiqa olmaydi. Zero, ekologik muammolar o'z tabiatiga ko'ra chegara bilmaydi va ularning yechimi faqat bir davlat doirasida amalga oshirilishi mumkin emas. Jumladan, iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, bioxilma-xillikning kamayishi, dunyo okeanining ifloslanishi kabi muammolar global xarakterga ega bo'lib, ular butun insoniyat va sayyoramiz uchun xavf tug'diradi.

Nazariy tahlil. Global ekologik muammolarni hal qilish uchun dunyoning barcha mamlakatlari o'zaro kelishilgan va muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirishi zarur. Har bir davlat o'zining iqtisodiy manfaatlarini qoniqtirishga intilish bilan birga, umumbashariy ekologik muammolarni hal etish yo'lida ham ma'lum mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozim. Aks holda, bir davlat tomonidan amalga oshiriladigan ekologik chora-tadbirlar boshqa davlatlarning ekologiyaga zararli faoliyati tufayli o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Bu jarayon turli darajadagi hamkorlikni, shu jumladan, davlatlararo shartnomalar tuzish, xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro hamkorlik qilish va umumiy kelishuvlarga erishishni talab etadi. Xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar, uchrashuvlar o'tkazish, qo'shma tadqiqotlar olib borish, ekologik monitoring tizimlarini yaratish va rivojlantirish, ekologik xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish — bularning barchasi xalqaro ekologik hamkorlikning muhim shakllari hisoblanadi.

Ekologik mas'uliyatga asoslangan global hamkorlikning muhim jihatlaridan biri - bu rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olish va har bir mamlakatning imkoniyatlariga mos ekologik majburiyatlarni belgilashdir. Bu masalada teng yondashuv adolatsizlikka olib kelishi mumkin, chunki turli davlatlarning ekologik muammolarni hal qilish qobiliyati turlicha. Ba'zi davlatlarda zamonaviy "yashil" texnologiyalar mavjud bo'lsa, boshqalarida esa bunday imkoniyatlar cheklangan. Chunki turli mamlakatlar turli iqtisodiy rivojlanish darajasida bo'lib, ularning tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, texnologik imkoniyatlari va ekologik muammolarni hal qilish salohiyati ham har xil. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyoti ko'p hollarda tabiatga zararli ta'sir ko'rsatuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish hisobiga qurilgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar esa hozirgi kunda o'z iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilashga intilmoqda.

Shu sababli, ekologik mas'uliyatni taqsimlashda har bir mamlakatning o'ziga xos sharoitlarini inobatga olish adolatli yondashuv hisoblanadi. Bunda rivojlangan davlatlarning tarixiy javobgarligini, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini, shuningdek rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy o'sishga bo'lgan ehtiyojlarini e'tiborga olish lozim. Bu yerda «umumiy, lekin tabaqalashtirilgan mas'uliyat» prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu prinsip Rio-de-Janeyro deklaratsiyasida belgilangan bo'lib, u global ekologik muammolarni hal etishda davlatlarning o'rnini va vazifalarini adolatli taqsimlash mexanizmini ta'minlaydi. Bu prinsip barcha davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha umumiy mas'uliyatini tan oladi, ammo rivojlangan mamlakatlarga o'zlarining katta iqtisodiy imkoniyatlari va tarixiy jihatdan ko'proq ifloslantiruvchi moddalarni chiqarganligi sababli ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bu prinsip rivojlangan davlatlar tomonidan atrof-muhit ifloslanishining asosiy sababchisi bo'lganliklarini tan olishga asoslanadi hamda ularning ekologik muammolarni hal etishda yetakchi rol o'ynashlarini talab etadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlari ham hurmat qilinishi va ularga ekologik muammolarni hal qilish uchun zarur texnologik va moliyaviy yordam ko'rsatilishi kerak. Bu davlatlarga "yashil" texnologiyalarni joriy qilish, ekologik muammolarni hal etish uchun moliyaviy ko'mak berish, mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik mas'uliyat falsafasining asosiy maqsadi – ekologik mas'uliyatli jamiyatni shakllantirishdir. Bu maqsad bugungi global ekologik inqiroz sharoitida insoniyat kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ekologik mas'uliyatli jamiyat tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarning yangi paradigmasiga asoslanadi hamda ekologik ong, ekologik adolat va

barqaror rivojlanish tamoyillariga tayanadi. Ekologik inqirozning chuqurlashuvi bunday jamiyat qurishni nazariy g'oyadan amaliy zarurat darajasiga olib chiqmoqda.

Ekologik mas'uliyatli jamiyat quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda shakllanadi. Birinchidan, barqaror rivojlanish tamoyili ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning muvozanatini ta'minlashni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, chiqindilarni kamaytirishni va tabiat bilan uyg'un yashashni nazarda tutadi. Ikkinchidan, ekologik adolat tamoyili ekologik resurslar va ekologik xavflarning jamiyatda va davlatlar o'rtasida adolatli taqsimlanishini talab qiladi. Bu tamoyil hozirgi avlod bilan birga kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olishni taqozo etadi.

Uchinchidan, ekologik fuqarolik fuqarolarning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi faol ishtiroki, ekologik ong va mas'uliyatning yuksalishini anglatadi. Bu kundalik hayotda ekologik xatti-harakatlarni – chiqindilarni saralash, resurslarni tejash, toza transportdan foydalanish kabi amaliy choralarni o'z ichiga oladi. To'rtinchidan, ekologik ma'rifat jamiyatda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirib, ekologik xulq-atvorni rivojlantiradi. Ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Ekologik mas'uliyat konsepsiyasi transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishda ham muhimdir. Suv resurslari, havo ifloslanishi, iqlim o'zgarishi kabi global muammolar davlatlar o'rtasida mas'uliyat taqsimotini talab qiladi. Bu borada bir qator tamoyillar mavjud: «ifloslantiruvchi to'laydi» prinsipi – ekologik zarar yetkazgan tomonning uni bartaraf etish majburiyati; hamkorlik prinsipi – davlatlarning qo'shma choralar ko'rishi; ogohlantirish prinsipi – ekologik xavf tug'diruvchi loyihalar haqida oldindan xabardor qilish; salohiyatni oshirish prinsipi – rivojlangan davlatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatishi.

Orol dengizi fojiasi transmilliy ekologik muammolarning murakkabligini yorqin ko'rsatadi. Orolning qurishi O'rta Osiyo mintaqasining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy holatiga jiddiy zarar yetkazdi va bu jarayonni professor S. Mamashokirov 1988 yildayoq ogohlantirgan edi. Uning ta'kidlashicha, Orol dengizi mintaqa iqlimini boshqaruvchi asosiy omil bo'lib, uning qurishi keng hududlarni antropogen cho'lga aylantirgan, tuproqning sho'rlanishini kuchaytirgan, chang-tuz bo'ronlari esa aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu fojia xalqaro ekologik mas'uliyat, hamkorlik va o'z vaqtida qabul qilingan ilmiy asoslangan qarorlarning naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.

Professor S.Mamashokirovning bu fikrlari Orol fojiasi bo'yicha mas'uliyat taqsimoti masalasining nechog'lik murakkab ekanini ko'rsatadi. Orol dengizi qurishining oldini olish uchun o'z vaqtida kerakli choralar ko'rilmaganligi, bu muammoning jiddiyligini anglab yetish

uchun qimmatli vaqt yo'qotilganligi, mas'uliyat taqsimoti mexanizmining yo'qligi ekologik falokatning jiddiy oqibatlariga olib kelganini ko'rsatadi.

Iste'mol madaniyatini o'zgartirish ekologik inqirozdan chiqishning muhim shartlaridan biridir. Zamonaviy jamiyatda shakllangan iste'molga asoslangan hayot tarzi va qadriyatlar tizimi tabiatga katta bosim o'tkazmoqda. Iste'mol madaniyatidagi o'zgarishlar insoniyatning tabiat bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish va barqaror rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy shartlaridan biridir. Bugungi kunda ortiqcha iste'mol tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Bu haqda Z.Abdulazimova shunday yozadi: «Is'temolchilik konsepsiyasida jamiyat qonunlari tabiat qonunlaridan ustun quyilib, tarixda bu oqimning kapitalistik ruhiyati asosida ifolash mumkin. U o'z mohiyatiga ko'ra foyda ketidan yuruvchi falsafiy paradigmasididagi pragmatizmidir. Inson tabiatdan ehson kutib yashay olmaydi balki uni majbur qiladi degan shior ostida faollashadi va mazimun mohiyatini ifodalaydi» [6].

Darhaqiqot, jahon aholisining soni va iste'mol darajasi ortib borayotgan bir paytda, tabiiy resurslar cheklangan bo'lib, ularning tiklanish imkoniyatlari insoniyat ehtiyojlariga nisbatan ancha past. Buning natijasida o'rmonlarning qisqarishi, tuproq eroziyasi, suv resurslarining ifloslanishi, bioxilma-xillikning kamayishi kabi muammolar kuchayib bormoqda. Shu bois, mas'uliyatli iste'mol modeliga o'tish muhim ahamiyatga ega. Bu ekologik inqiroz sharoitida insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

«Mas'uliyatli iste'mol» konsepsiyasi iste'molning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu konsepsiya insonlarni o'z iste'mol odatlariga mas'uliyat bilan yondashishga, iste'mol qilinadigan mahsulotlarning atrof-muhitga va jamiyatga ta'sirini hisobga olishga chaqiradi. Mas'uliyatli iste'molchi o'z tanlovini amalga oshirishda nafaqat mahsulotning narxi va sifatini, balki uning ekologik xususiyatlarini, ishlab chiqarish jarayonida qancha resurs sarflanganini, chiqindilar miqdorini va ularni qayta ishlash imkoniyatlarini ham hisobga oladi. Mas'uliyatli iste'mol – bu nafaqat kamroq iste'mol qilish, balki ongli ravishda iste'mol qilish, ya'ni xarid qilinadigan tovarlarning ekologik oqibatlarini, ishlab chiqarish sharoitlarini va umrini hisobga olish demakdir. Bu yondashuv iste'molchining o'z xatti-harakatlari va tanlovlari uchun mas'uliyatni his qilishini, ularning atrof-muhit va jamiyatga ta'sirini anglashini taqozo etadi. Mas'uliyatli iste'mol nafaqat shaxsiy manfaatlarga, balki jamiyat va tabiat manfaatlari ham xizmat qilishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan BMTning «Barqaror rivojlanish maqsadlari»ning 12-maqsadi sifatida «Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish» belgilangan. Bu maqsad doirasida 2030 yilgacha tabiiy resurslardan oqilona

foydalanishni ta'minlash, chiqindilar miqdorini kamaytirish, mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish amaliyotini joriy qilish kabi vazifalar belgilangan.

Mas'uliyatli iste'mol madaniyatining muqobil modellari bo'lgan minimalizm, frugalizm, «zero waste» kabi hayot tarzi modellarini targ'ib qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar hozirgi kunda ko'plab insonlar tomonidan qabul qilinmoqda va ularning tarafdorlari soni ortib bormoqda. Minimalizm falsafasi kerakli bo'lmagan narsalarga ega bo'lishdan voz kechish, hayotni soddalashtirish va faqat zarur narsalarni sotib olishga asoslangan. Frugalizm esa tejamkorlik va qanoat hissini rivojlantirishga, o'z ehtiyojlarini cheklashga va resurslarni tejashga qaratilgan hayot tarzi. «Zero waste» (chiqindisiz hayot) modeli esa chiqindilarni umuman chiqarmaslikni yoki minimal darajaga tushirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu yondashuvlar asosida yashovchi insonlar qayta ishlanadigan va biologik parchalanadigan materiallardan foydalanish, plastik qadoqlarni rad etish, ikkilamchi ashyolardan foydalanish kabi amaliyotlarni o'z hayotlariga tatbiq etadilar. Bu modellar iste'molchilik qadriyatlariga qarshi turib, kamroq iste'mol qilish, chiqindilarni kamaytirish va resurslarni tejash orqali ekologik izni qisqartirishga qaratilgan. Bunday muqobil hayot tarzi modellarini keng targ'ib qilish orqali jamiyatda iste'mol madaniyatini o'zgartirishga, ortiqcha iste'moldan voz kechish va tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillarini singdirishga erishish mumkin. Bu esa ekologik muammolarni hal qilishga va barqaror rivojlanishni ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ekologik inqirozni bartaraf etish mas'uliyat tamoyillariga tayanadi va insoniyatning iste'mol madaniyatini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bu jarayon inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqib, hukmronlikka asoslangan yondashuvdan voz kechishni, tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va ehtiromni shakllantirishni nazarda tutadi. Ekologik muammolarning falsafiy yechimi mas'uliyat prinsiplarining amalda qo'llanishi, ekologik etika me'yorlariga rioya qilinishi va ekologik qadriyatlarning jamiyat ongi markaziga aylanishiga bog'liq.

Inson tabiat oldidagi mas'uliyatini chuqur anglab, fan-texnika yutuqlaridan ekologik xavfsiz tarzda foydalanishi, faoliyatining salbiy oqibatlarini oldindan baholashi va zarur hollarda bartaraf etishi lozim. Tabiiy resurslardan foydalanishda kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish, resurslarning kamayishiga yo'l qo'yimaslik va ekologik tizimlarning barqarorligini saqlash – insoniyatning tarixiy javobgarligidir.

Ekologik mas'uliyat shaxsiy va jamoaviy darajada shakllanib, kundalik hayotda ekologik ongli xulq-atvorni namoyon qilish orqali mustahkamlanadi. Insonning tabiat bilan munosabatida muvozanatni saqlash, ekologik qonuniyatlarni hurmat qilish va ularga zarar yetkazmaslik

ekologik mas'uliyatning asosiy jihatlaridir. Ekologik inqirozni faqat ekologik mas'uliyatli jamiyatni shakllantirish orqali bartaraf etish mumkin.

Zamonaviy ekologik vaziyat iste'mol madaniyatini qayta ko'rib chiqishni, ortiqcha iste'molchilikdan voz kechishni, resurslardan oqilona foydalanishni va tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillarini qaror toptirishni talab qiladi. Bu jarayonda moddiy qadriyatlardan ko'ra ma'naviy qadriyatlarga e'tibor qaratish, umuminsoniy manfaatlarni hisobga olish va soddalikka intilish muhim ahamiyatga ega. Iste'mol madaniyatining ekologik jihatdan ijobiy transformatsiyasi esa shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatning oshishi, ongli iste'mol amaliyotining keng targ'ib qilinishi orqali ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Йонас Г. Принцип ответственности. Опыт этики для технологической цивилизации. М.: Айрис пресс, 2004. – С. 189
2. Qayumov A., Rahmonov R., Egamberdieva L., Hamroqulov J. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish/O'quv-uslubiy qo'llanma.-T: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2013. -B.7.
3. Shermuxamedova N. Inson falsafasi. -T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. -B.11.
4. Sharafutdinova R., Muratova G., Tursunbaeva M. Ekologik ta'lim va tarbiya tushunchalarini shakllantirish tamoyillari // Электронный научный журнал «Биология и интегративная медицина» №1 – январь-февраль (41) 2020.-Б.98-104.
5. Фатхутдинова Р. III. Проблемы эколого-географического образования// Ecological education and ecological culture of the population : materials of the III international scientific conference on February 25–26, 2015. – Prague : Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ». –P.60.
6. Abduazimova , Z. Globalashgan jamiyatda ekologik axloqni shakllantirishga konseptual yondashuvning nazariy-metodologik asoslari// Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития, 2021-1, -Б.394–397.